MANGULIKKA DAXLDOR SHAXS

Ahmedova Bekposhsha
UrDU huzuridagi fizika -matematika va informatika fanlariga
ixtisoslashtirilgan maktabning Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Qadamova Hayotxon
UrDU huzuridagi fizika -matematika va informatika fanlariga
ixtisoslashtirilgan maktabning 9-B sinf o‘quvchisi

Mashhur adabiyotshunos va jonkuyar olima Munavvara Salayeva hozirgi kunda dunyo bo‘yicha Oliy ta’lim sohasidagi nufuzli universitetlardan biriga aylanib borayotgan Urganch davlat universitetining filologiya bo‘yicha birinchi ayol fan nomzodi hisoblanadi. Bunday darajaga yetishish Munavvara Salayeva uchun umri davomida qilgan tinimsiz mehnati va izlanishlarining samarasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki u o‘z hayoti davomida ilm o‘rganish va harakat qilishdan hech ham to‘xtamagan. Munavvara Salayeva 1943-yilda Toshhovuzdagi ikki yillik O‘qituvchilar institutini bitkazib, shu institutda o‘qituvchi bo‘lib, 1949-yil oxirigacha shu yerda faoliyat ko‘rsatgan. O‘sha davrda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida sirtdan o‘qib, imtiyozli diplom bilan tugatgan. Keyinchalik esa Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida o‘qib, so‘ngra yo‘llanma bilan Xorazm davlat pedagogika institutiga ya’ni hozirgi Urganch davlat universitetiga ishga joylashgan. Umrining oxirigacha shu dargohda ta’lim bergan. Uning shu qadar bilimga chanqoq va tirishqoq ayol bo‘lganligini bilish biz yoshlarda bilimga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Bundan tashqari Munavvara Salayeva o‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi adabiyotshunos olima hisoblanadi. Uning “Alisher Navoiy va Xorazm shoirlari” nomli monografiyasi hozirgi kungacha ham yosh olimlar uchun manbaa bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Taniqli ustozimiz bu faoliyatlari orqali, hayoti davomida Xorazm tarixida o‘chmas nom qoldirgan.

Bu xizmatlari uchun o‘z davrida ustozimiz “Ishdagi a’lo yutuqlari uchun“ ko‘krak nishoni, “Mehnatdagi alohida xizmatlari uchun“ medali, 1985-yilda Qori Niyoziy nomidagi ko‘krak nishoni va 1994-yilda “Shuhrat“ medali kabi bir qator unvonlar bilan taqdirlangan. Munavvara Salayeva bu ishlari orqali barcha o‘zbek ayollariga o‘rnak bo‘la oldi desak adashmagan bo‘lamiz.

Mustaqillik sharofati bilan 1993-yilda olimaning “ Navoiy va Xorazm shoirlari ” risolasi chop etilgan. Bu kitob o‘z ichiga ulug‘ ajdodlarimiz Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar kabi buyuk allomalarimizning ijodini maktablarda o‘rgatish masalalarini qamrab oladi. Bu esa Xorazm xalqining ko‘p yillik armoni bo‘lgan Xorazm maktablarida vohamiz qalam ahlining ijodini o‘rgatish orzusini amalga oshirgan. Bu ishlarining samarasi hali bugungacha bizdek shogirdlarga shuningdek, barcha ilim ahliga asqotib kelmoqda.

Biz bunday buyuk ustozning shogirdlari ekanligimizdan faxrlanamiz. Chunki undagi ilmga bo‘lgan muhabbat bizni juda ruhlantiradi. Olima nafaqat bilimli va aqlli ayol bundan tashqari, mehribon ona va sadoqatli umr yo‘ldosh ham bo‘la olgan. Munavvara Salayeva ikkita qiz va bitta o‘g‘ilning onasidir. O‘g‘li Qadamboy Salayev ham Urganch davlat universitetida tahsil olgan va shu yerda faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda ustozimizning faoliyatini farzandlari, nevaralari va shogirdlari davom ettirmoqda .

Ustozimiz nafaqat ilm yo‘lidagi izlanishlari bilan balki, xushfelligi, shirin so‘zligi va oqko‘ngilligi bilan ham atrofidagi insonlar qalbidan abadiy joy egallagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, u har tomonlama mukammal va beqiyos ayol bo‘lgan. Adabiyotshunos olima nafaqat bizning balki, butun Xorazm ahlining qalbidan fidoiy olima, jonkuyar ustoz va mangulikka daxldor shaxs sifatida o‘chmas iz qoldirgan. Biz yoshlar Munavvara Salayevaning har bir ishidan ilhomlanib ustozimizning yo‘lini davom ettirishga bel bog‘laganmiz. Bu yo‘lda ustozimizga munosib shogird bo‘lish uchun qo‘limizdan kelganicha yuksak cho‘qqilarni egallashga harakat qilamiz va ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishni o‘z burchimiz deb bilamiz.